# 2021- yil yanvar-aprel oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida jami **7190,9** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **112,3%** ni tashkil etdi.




## 2021- yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda




2021- yil 1-may holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 8,6 mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilga nisbatan **188,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **62,2%**), fuqarolik obyektlarini qurish **196,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **19,3%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **337,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **18,6%**) o’sishidir.

## Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.05.2020- yil | 01.05.2021- yil | |
| **Toshkent sh.** | 7276 | 8 694 | **119,5** |
| *tumanlar* | | | |
| **Bektemir** | 147 | 185 | 125,9 |
| **Mirzo Ulug‘bek** | 925 | 1 091 | 117,9 |
| **Mirobod** | 642 | 790 | 123,1 |
| **Olmazor** | 609 | 723 | 118,7 |
| **Sergeli** | 480 | 474 | 98,8 |
| **Uchtepa** | 536 | 629 | 117,4 |
| **Chilonzor** | 968 | 1 105 | 114,2 |
| **Shayxontohur** | 576 | 690 | 119,8 |
| **Yunusobod** | 968 | 1 139 | 117,7 |
| **Yakkasaroy** | 762 | 879 | 115,4 |
| **Yangihayot** | | 174 | |
| **Yashnobod** | 663 | 815 | 122,9 |

## Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da 01.05.2021- yil holatiga ko’ra




***Ma’lumot uchun***: *shaharda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,9 %), Uchtepa tuman (10,8 %) va Shayxontohur (10,2 %) tumanlarida qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1868,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilga nisbatan **139,7 %** ga ko‘p bajarilgan bo’lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **4,8 %** punktga ko`payib, **26,0** ni tashkil etdi.



**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da**




***Ma’lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Uchtepa tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 45,3 %i yoki 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 454,3 % ko’p), Yunusobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,8** % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 133,9 %), va Shayxontohur tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **33,4 %** i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **254,0** % ) ga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,1 %** i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **5,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etgan holda **4469,1** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **11,9** % ni tashkil etdi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **0,9** % punktga ko`paygan yoki **852,9** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilga nisbatan **110,1** % ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da, mlrd. so'm**







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **201,2** mlrd. so'm yoki 2020- yilga nisbatan **139,8 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6990,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **210,4 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

***2021- yil yanvar-aprel*** oylarida

**68,2 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo‘yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **68,2 %** i yoki **4902,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**27,8 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1364,6** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **27,8 %** ni tashkil etdi.

**60,6 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **2971,8** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **60,6 %** ni tashkil etdi.

**11,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **566,3** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **11,6 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari
## 2021- yil yanvar-aprel oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm) | O'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent sh.** | **7 190,9** | **112,3** | **100,0** |
| ***tumanlar*** | | | |
| **Bektemir** | 348,7 | 107,0 | 4,8 |
| **Mirzo Ulug'bek** | 685,0 | 105,6 | 9,5 |
| **Mirobod** | 586,3 | 101,9 | 8,2 |
| **Olmazor** | 657,1 | 101,6 | 9,1 |
| **Sergeli** | 493,0 | 105,6 | 6,9 |
| **Uchtepa** | 777,8 | 124,4 | 10,8 |
| **Chilonzor** | 559,0 | 96,7 | 7,8 |
| **Shayxontohur** | 724,9 | 136,7 | 10,1 |
| **Yunusobod** | 1 001,3 | 132,1 | 13,9 |
| **Yakkasaroy** | 561,1 | 110,5 | 7,8 |
| **Yangihayot** | 297,1 | 109,7 | 4,2 |
| **Yashnobod** | 499,6 | 106,2 | 6,9 |

*Tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajmni qo'shgan holda

## Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

### 2020-yil yanvar-aprel

**11,4** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**20,3** — Fuqarolik obyektlarini qurilishi

**68,3** — Bino va inshootlarni qurilishi

### 2021- yil yanvar-aprel

**18,6** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**19,3** — Fuqarolik obyektlarini qurislihi

**62,2** — Bino va inshootlarni qurilishi

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



# Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlar tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,3 %** ni tashkil etib, 2020- yi ko‘rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko`paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxon va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulus 2020- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktg ko`payib, **67,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yildag ko‘rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamayib, **26,9** % n tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo’yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik quri tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ish hajmining ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yi nisbatan **0,6 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirma ulushi mos ravishda **70,0 %** (**3,0 %** punktga kamayish tashkil etdi.





## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilga nisbatan **0,6 %** punktga kamaydi va **11,1%** ni tashkil etdi. Qolgan **90,0%** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilga nisbatan **0,6 %** punktga ko‘paydi.



## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo‘yicha tarkibida Uchtepa (tumandagi qurilish hajmining **45,2** % ni tashkil etdi) va Yunusobod (mos ravishda **44,8** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

# Tumanlar kesimida qurilish ishlari
# 2021- yil yanvar-aprel oylarida

## Eng yuqori hajm

*(mlrd. so‘m)*

| O‘rin | Tuman | Hajm |
|---|---|---|
| 1 | Yunusobod | 1001,3 |
| 2 | Uchtepa | 777,7 |
| 3 | Shayxontohur | 724,8 |



## Kichik hajm

*(mlrd. so‘m)*

| O‘rin | Tuman | Hajm |
|---|---|---|
| 1 | Yangi xayot | 297,1 |
| 2 | Bektemir | 348,7 |
| 3 | Sirg`ali | 493,0 |

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas’ul: D.Rustamov
Aloqa telefoni: (71) 203-88-19